

DINIY EKSTRIMISTIK, SEPARATISTIK, FUNDAMENTALISTIK YOKI BOSHQA TAQIQLANGAN TASHKILOTLAR TUZISH, ULARGA RAHBARLIK QILISH, ULARDA ISHTIROK ETISH JINOYATINI TERGOV QILISH

¹Jo'rabekov Toxirjon Ma'murjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquq kafedrası o'qituvchisi,

²Yangiyev Og'abek Yunus o'gli

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs 319-guruh kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7568655>

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda turli qalqib suzib yurgan davlatlar o'rtasida turli koko'rinishdagi urushlarni kelib chiqishiga sabab bo'layotgan diniy ekstrimistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar, ularning maqsad va vazifalari, faoliyati, xorij davlatlarining ushbu turdagi tashkilotlarga qarshi kurashdagi tajribasi va ushbu turdagi tashkilotlarga a'zo bo'lganlik, rahbarlik qilganlik, tashkili etganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha javobgarlik, ushbu turdagi tashkilotlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish to'g'risida.

Kalit so'zlar: Diniy ekstrimistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlarni tuzish, fundamentalizm, diniy ekstremistik tashkilot, separatizm, shunday tashkilotlarda ishtirok etish, ularga rahbarlik qilish.

Bugungi kunda dunyoda barcha sohalarida rivojlanish ishlari olib borilmoqda, ushbu taraqqiyot insonlarga keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Shu bilan birgalikda bir yaxshining bir yomoni bo'lgani kabi, ayrim davlatlar, tashkilotlar, shaxslar ushbu rivojlanishga zid g'oyalarni targ'b qilib taraqqiyotga qarshilik qilmoqda. Ushbu qarshiliklar natijasida turli urushlar, iqtisodiy inqirozlar, oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelmoqda. Ayrim davlatlarda esa turli ayirmachilik harakatlari (ommaviy harakatlar) va turli xalqlar, milatlar o'rtasida urushlar bo'lmoqda. Bugungi kundagi globallashuv diniy ekstrimizm, separatizm, fundamentalizm bilan bog'liq holatlarning ko'payishiga va ushbu jarayonlarning tezlashishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu turdagi jinoyatlarga va ekstrimistik, fundamentalistik, separatistik tashkilotlarga qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar tashkil etilgan va ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashda o'z faoliyatini olib bormoqda. Shu o'rinda bir fikrni keltirib o'taman "Biz bu yerga urushga qarshi kurashish uchun yig'ilganmiz... biz milliardlab pul va millionlab qo'shinlarga ega bo'lgan barcha hukumatlarning bu ulkan kuchini mag'lub etishga umid qilamiz... bizning qo'limizda faqat bitta, ammo eng kuchli qurol bor. dunyo – haqiqat" [1].

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida «Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosqa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi»[2], degan edi.

Mamlakatimizda diniy ekstrimizim, separatizm, fundamentalizmga qarshi kurashish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Xususan respublikamizda ushbu turdagi harakatlarga qarshi kurashish bo'yicha qonunlar, qonun osti hujjatlari va davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda JK)ga ushbu turdagi jinoyat harakatlarni sodir etganlik uchun jinoyat javobgarlik belgilab o'tilgan. Shunday normalardan biri 244²-moddasida "Diniy ekstremistik,

separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etganlik uchun” jinoiy javobgarlik belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining jinoyatga oid statistika ma’lumotlariga ko‘ra ushbu “Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish”[3] jinoyati bo‘yicha 2022-yil davomida respublika hududida 120 ta jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan, shundan 36 tasiga hukm o‘qilgan. Asosan Toshkent shahrida 7 ta va Andijon viloyatida 8 ta, qolgan jinoyatlar respublikaning boshqa hududlarida. Ushbu normada quyidagilar belgilangan:

1-qismda: Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Diniy tashkilot diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko‘maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko‘radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o‘z-o‘zini boshqaruvchi uyushma. Ayni vaqtda u fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan hisoblanadi. Diniy tashkilotlar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va konstitutsiyaga qarshi targ‘ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg‘otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo‘hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o‘rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi[4].

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish deganda, ushbu tashkilot a‘zolarini tanlash va joylashtirish uning tuzilmasini, faoliyat rejasini aniqlash tushuniladi[5]. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra o‘zbekiston respublikasi hududida faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘zgartirish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo‘ravonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonunchilik bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko‘zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bundan tashqari mamlakatimizda harbiylashtirilgan tashkilotlar, harbiylashtirilgan tuzilmalar va diniy partiyalar va ularning filiallari faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi. Ushbu turdagi tashkilot yoki tuzilmalarni tuzganlik, rahbarlik qilganlik va unda azo bo‘lganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 244²-moddasi bilan javobgarlik belgilangan. Yurtboshimiz takidlaganlaridek «Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida yangi keskinlik o‘choqlari paydo bo‘lmoqda, millatlar va konfessiyalar o‘rtasida qarama-qarshiliklar kuchaymoqda, radikalizm va ekstremizm xavfi tobora ortib bormoqda. Mana shunday tahlikali sharoitda biz barqarorlik va xavfsizligimizga ziyon yetkazadigan har qanday tahdid va xatarlarga keskin qarshi turishimiz shart. Ayni vaqtda shuni e‘tirof etish kerakki, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan manfaatdor bo‘lmagan turli buzg‘unchi tashqi kuchlar ham mavjud. Ushbu kuchlar tomonidan yurtimizdagi osoyishta vaziyatni izdan chiqarish, fuqarolarimizning ishonchiga kirib, ularni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga qaratilgan

g'arazli maqsadlar amalga oshirildi va bunday urinishlar bundan keyin ham sodir bo'lishi mumkin»[6]. Diniy ekstremizm — ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi. Diniy ekstremistik tashkilot — ekstremistik faoliyatni amalga oshirganligi tufayli o'ziga nisbatan faoliyatini tugatish yoki taqiqlash to'g'risida sudning qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan qarori qabul qilingan tashkilot[7]. Diniy ekstrimistik tashkilotda ishtirokchilar (a'zolar) ushbu tashkilotning taqiqlangan tashkilot ekanligini bilaturib, o'z roziligi bilan yagona rahbarlik asosida yoki jamoaviy rahbarlik asosida birlashi va vazifalar bo'linishi lozim. *Separatizm* (fransuzcha. Separatisme, lot. Separatus - ajratilgan) — ajratishga, yakkalanib qolishga intilish, davlatning bir qismini ajratish va yangi davlat tuzilmasini yaratish yoki mamlakatning bir qismiga avtonomiya berish harakati. Separatizmning milliy ozodlik harakatidan farqi sub'yektiv (bahoviy) xarakterga ega. Separatizm - keng ko'lamli ijtimoiy hodisa, murakkab, ko'p omilli, chuqur tarixga asoslangan. Separatizm — davlatning hududiy yaxlitligini buzishga, shu jumladan uning hududidan bir qismini ajratib olishga yoki davlatni dezintegratsiyalash qaratilgan, zo'ravonlik yo'li bilan sodir etiladigan, shuningdek bunday qilmishni rejalashtirish va tayyorlash, uni sodir etishga ko'maklashishi, unga undash va Tomonlar milliy qonunchiligiga muvofiq jinoiy tartibda taqib qilinadigan biror bir qilmish[8]. Qoida tariqasida, u hududlarning ijtimoiy tuzilishi (etnik, konfessional, milliy, demografik ...), madaniyat va tarixiy an'analarning o'ziga xos xususiyatlari, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi va boshqalar bilan belgilanadi. Separatistik tashkilot- o'z oldiga davlatni, millatni ijtimoiy jihatlariga ko'ra boshqasidan ajratishni maqsad qilib qo'ygan va ushbu harakatlarni amalga oshirayotgan tuzilma tushuniladi.

Fundamentalizm tushunchasi ikki xil manoda qo'llanadi. Keng ma'noda — muayyan ta'limot aqidalarining o'zgarmasligini e'lon qiladigan, e'tiqodni aql dalillaridan ustun qo'yadigan, ilohiy kitoblardagi vahiy qaysi ma'noda bayon etilgan bo'lsa, shu ma'noda qabul qilinishini talab etadigan, ayni vaqtda ularni majoziy ma'noda talqin etishga har qanday urinishlarni rad etadigan, din asoslarini og'ishmay bajarishni qattiq talab qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo'nalish. Tor ma'noda — protestantizmdagi ortodoks oqimlar. 1910-yillarda AQShning janubiy shtatlarida paydo bo'lgan. Ular xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonchni mustahkamlashni, uni so'zma so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qiladilar. 1919-yil Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

Fundamentalizm (lot. *Fundamentum*-“poydevor”) - o'ta [konservativ](#) diniy, falsafiy, axloqiy va ijtimoiy harakatlarning umumiy nomi. Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin, degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahy va mo'jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga, murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodning aqlga tayangan mantiqiy dallillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizmning asosiy g'oyasi - bu asl "sof" holatga qaytish, e'tiqod yoki mafkuraning "yo'qolgan pokligini" tiklash g'oyasi, bu asl holatni ma'lum bir fundamentalistik harakat tushunadigan shaklda[9]. Fundamentalizmning konstitutsiyaviy xususiyati uning tashqi rasmiy xususiyatlari emas, balki zamonaviylik bilan ziddiyatidir[10]. Diniy ekstrimistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlarda ishtirok etish dedganda mazkur tashkilotning mavjudligini noqonuniyligini anglagan holda tan olish va har qanday (yozma yoki og'zaki) shaklda mazkur tashkilot doirasida hamkorlik qilish to'g'risida rozilik berish tushunilishi lozim. Ya'ni shaxslar tashkilotning O'zbekiston Respublikasida faoliyati taqiqlanganligini, uning amalga oshirayotgan harakatlari jinoyat ekanligini bila turib, ushbu tashkilotga a'zo bo'lish va uning faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashish tushuniladi. Yuqoridagi tashkilotlarga rahbarlik qilish mazkur tashkilotlarning ish olib borishini ta'minlashga qaratilgan harakatlarda namoyon bo'ladi. Diniy ekstrimistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlarga rahbarlik qilish deganda, ushbu tashkilotlarni faoliyat yuritishini, rejalashturuvchi, vazifalarini belgilovchi, tashkilot azolariga vazifalarni taqsimlab beruvchi va boshqa rahbariy vazifalarni bajaruvchi shaxs. Ushbu norma bilan jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi muhofaza qilinadi. Ushbu normaning obyektiv tomonini esa diniy ekstrimistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzishda, ularga rahbarlik qilishda va ularda rahbarlik qilishda namoyon bo'ladi. Ushbu jinoyat yuqoridagi harakatlarni birini sodir etish bilan tugallanadi va javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Ushbu norma to'g'ri qasddan sodir etiladi. Motiv va maqsad kvalifikatsiyaga tasir etmaydi lekin og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holat bo'lib keladi. Ushbu normaning ikkinch qismida quyidagilar belgilangan:

O'sha harakatlar (birinchi qismida ko'rsatilgan harakatlar):

- a) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa;
- b) voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda sodir etilgan bo'lsa

Ushbu qismga ko'ra yuqoridagi tashkilotlarni tuzish, ularga rahbarlik qilish yoki ularga a'zo bo'lish natijasida inson yoki isonlar qurbon bo'lishiga ko'p sonli shaxslar turli darajadagi tan jarohatlarini olishiga, juda ko'p miqdorda zarar yetishiga, yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa yoki voyaga yetmagan shaxsni ushbu tashkilotlarga jalb etilsa ushbu qism bilan javobgarlik yuzaga keladi.

Ushbu turdagi jinoyatlarda asosan "Shoh" dalillar tergovga qadar tekshiruv davrida aniqlanadi va rasmiyashtirib olinadi. Tergovga qadar tekshiruv organlari va tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi organlar ikki xil usulda aniqlaydi, ular quyidagilar:

- 1) ijtimoiy tarmoqlarni va butun jahon internet tarmog'ini monitoring qilish;
- 2) ko'maklashuvchi shaxslardan olingan ma'lumot va xabarlar orqali; Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarni va butun jahon internet tarmog'idan foydalanib ushbu turdagi jinoyatlar ko'p sodir etilmoqda. Shu sababli jinoyatni ushbu usulda sodir etilishini oldini olish va qarshi kurashish tizimini ishlab chiqish zarur.

Olingan tezkor ma'lumotga asosan tezkor tadbir va tergovga qadar tekshiruv harakatlarini o'tkazish orqali ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxsalar ushlanadi, aybini isbotlovchi dalillar va hujjatlar to'planadi. Ushbu vaqtda to'g'ri rasmiyashtirib olingan dalillar keyinchalik tergov va sud bosqichida shaxsni ayblashda (aybini isbotlashda) katta ahamiyatga ega. Shu sababli tergovga qadar tekshiruvga katta ahamiyat qaratish lozim.

Tergovga qadar tekshiruvni va tergovni amalga oshrayotgan organlar xodimlari ushbu turdagi jinoyatlarni ochishda va isbotlashda kuchli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim. Ushbu turdagi jinoyatlar ko'p hollarda bir o'zi sodir etilmaydi ya'ni bu turdagi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 155³, 156, 244, 244¹, 244³ va boshqa normalarida taqiqlangan jinoyatlar bilan birgalikda sodir etilishi mumkin. Bu turdagi jinoyatlarda quyidagi tipik tergov vaziyatlari bo'lishi mumkin:

1. Qulay vaziyat. Ya'ni jinoyatchi shaxs jinoyatni sodir etish vaqtida qo'lga tushsa;
2. Jinoyat sodir etilgan, ma'lumot va jinoyatni sodir etgan shaxsni ayblash uchun dalillar yetarli, jinoyatni sodir etgan shaxs aniq, lekin u shaxsning qayerdakligi noma'lum;
3. Jinoyat sodir etilgan, ma'lumot va jinoyatni sodir etgan shaxsni ayblash uchun dalillar yetarli, jinoyatni sodir etgan shaxs noma'lum;

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish jinoyatini tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar:

ushbu qilmish qachon, qayerda, kim tomonidan sodir etilgan, ushbu qilmishda diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish jinoyatinitarkibi bor yoki yo'qligi;

shaxsning aybini tasdiqlovchi dalillar bor yoki yo'qligi;

jinoiat qanday tartibda sodir etilganligi(bir guruh shaxslar tomonidan, takroran, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda);

jinoiat sodir etish natijasida yuzaga kelgan oqibatlar;

aybdorning aybini og'rlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar; jinoyatni sodir etilishiga imkon bergan shart sharoitlar;

Ushbu turdagi jinoyatlarning kriminologik tavsifi quydagilar-ushbu turdagi jinoyatlar qachon, qayerda, kim tomonidan, qanday sharoitda sodir etilganligi va bu natijasida qanday izlar qolganligi tushuniladi.

Ushbu turdagi jinoyatlarda tergovga qadartekshiruv davrida tezkor xodimlar tomondan o'tkazilgan tadbir asosida olingan ma'lumotlarga va dalillarga asosan keying o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlar o'tkazilishi belgilanadi. Ushbu turdagi jinoyatlarda o'tkazilishi lozim bo'lgan dastlabki tergov va protsessual harakatlari:

hodisa sodir bo'lgan joyni (narsani) ko'zdan kechirish;

olingan daliliarga nisbatan ekspertiza tainlash;

shaxsiy tintuv va olib qo'yish;

tushuntirishlar olish va boshqalar;

Ushbu turdagi jinoyatlarda zudlik bilan jinoyat ishi qo'zg'atish lozim yoki lozim emasligini aniqlashtirish kerak. Chunki qonunchiligimizga ko'ra shaxsning aybini isbotlashga qaratilgan asosiy tergov harakatlari jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin o'tkazilishi hamda shaxsninh huquqlarini cheklash bilan bog'liq harakatlar ham jinoyat ishi qo'zg'atilgadan keyin o'tkaziladi. Bundan tashqari ushbu turdagi jinoyatlarda dalillarni zudlik bilan mustahkamlab olinmasa keyinchalik dalillar va izlar yo'qolishi bilan shaxs javobgarlikdan qutilib qolishi mumkin. Bu turdagi jinoyatlarda kechiktirib bo'lmas tergov harakatlariga quyidagilar kiradi:

shaxsning va uning yaqin qarindoshlarining turar joylarini tintuv qilish;

ishga aloqador dalillarni va jamiyatda erkin olib yurilishi taqiqlangan narsa-buyumlarni yoki hujjatlarni olib qo'yish;

ishga aloqdor narsa, buyum yoki hujjatlarni ko'zdan kechirish;
pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va ularni olib qo'yish va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish mumkin.

Bundan tashqari olingan dalillarni mustahkamlash va boshqa dalillar bilan bog'lash va dalillarning maqbulligini ta'minlash maqsadida quyidagi keyingi tergov harakatlarini ham o'tkazilishi lozim, ya'ni:

jinoyatga aloqador shaxslarni (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabirlanuvchi va boshqalarni) so'r qilish;

shaxslarning ko'rsatuvlari bir-biriga zid kelganda, ko'rsatuvlarni mustahkamlash va to'g'riligini tekshirish maqsadida yuzlashtirish tergov harakatini o'tkazish;

agarda zarur bo'lsa ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish va holatdan kelib chiqib dalillarni mustahkamlash maqsadida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish ham mumkin.

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish jinoyatini tergov qilishda asosiy "shoh" dalillar tergovga qadar tekshiruv davrida tezkor tadbirlar va tergov harakatlari natijasida to'planadi. Jinoyat ishi qo'zg'algandan so'ng esa u dalillar tergov harakatlari bilan mustahkamlanadi va bir-biriga bog'lanadi.

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish jinoyatini sodir etgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchini, sudlanuvchini so'roq qilishda, shbu tashkilotlarni kim, qachon, nima maqsadda tuzganligin, kimlar ushbu tashkilotda nima vazifalarni bajarishin, shaxsning o'zi ushbu tashkilotga nima maqsadda qo'shilganligini, tashkilotni maqsadi, shiori nima ekanligini aniqlab olish zarur. Bundan tashqari so'roq tergov harakati eng murakkab va dallilar to'lash oson bo'lganligi saabbali ushbu tergov harakatida shaxsarga quyidagi savollarni berish lozim:

tashkilot maqsadi, shiori, tashkilotni tuzgan shaxs va tashkilot rahbari;

tashkilot qaysi huddudlarda va qachondan o'z faoliyatini yuritadi;

taxminan tashkilot a'zolarining soni va vazifalarning qay tartibda bo'linganligi;

tashkilot rejalashtirayotgan yoki amalga oshirgan ishlari (jinoyatlari);

so'roq qilinayotgan shaxsning tashkilotdagi vazifasi;

so'roq qilinayotga shaxs ham tashkilotga biror kishini(voyaga yetmagan shaxsni) jalb etganligi;

ushbu tashkilotni tuzish va faoliyat ko'rsatishi natijasida qanday oqibatlar yuzaga kelganligi;

tashkilotning targ'ibot etish usullari;

tashkilotning ijtimoiy tarmoq va internetdagi saytlarini aniqlash bilan bog'liq savollar berilishi lozim.

Ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish, ularga qarshi kurashishning eng samarali va qulay usuli bu bevosita ma'sul shaxslarning har tomonlama bilimlarini (dunyoviy, huquqiy, siyosiy, diniy) oshirish lozim. Chunki har tomonlama bilimga ega bo'lgan shaxsni turli yod g'oyalardan himoyalanganligi yuqori va mustaqil fikrga ega bo'ladi shu bilan birga mustaqil qaror qabul qila oladi. Biror kishining ta'siriga tushib qolishi kam uchraydi. Shaxslarni shaxs sifatida har tomonlama bilimli qilib shakillantiishni maktabgacha ta'limdan boshlash lozim.

Ko'plab davlatlarda ushbu turdagi tashkilotlarning faoliyati ta'qiqlangan va ularni tashkil etganlik, faoliyat yurutganligi va ularga rahbarlik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. Xususan ushbu turdagi jinoyatlar uchun Rossiya federatsiyasining Jinoyat kodeksining 282¹ va 282²-moddalarida javobgarlik belgilangan. 282¹-moddasiga ko'ra: "Ekstremistik hamjamiyatni, ya'ni ekstremistik yo'nalishdagi jinoyatlarni tayyorlash yoki sodir etish uchun uyushgan shaxslar guruhini tuzish, shuningdek bunday ekstremistik jamiyatni, uning tarkibiga kiruvchi tarkibiy bo'linmalarni yoki uning tarkibiy bo'linmalarini boshqarish; ekstremistik jinoyatlarni sodir etish rejalarini va (yoki) shart-sharoitlarni ishlab chiqish uchun bunday jamiyatning tarkibiy bo'linmalari yoki tarkibiy bo'linmalarining tashkilotchilari, rahbarlari yoki boshqa vakillarining birlashmasini tuzish", 282²-moddasida esa: "Sud ekstremistik faoliyat bilan bog'liq faoliyatni tugatish yoki taqiqlash to'g'risida yakuniy qaror qabul qilgan jamoat yoki diniy birlashmaning yoki boshqa tashkilotning faoliyatini tashkil etish, qonun hujjatlariga muvofiq terroristik deb topilgan tashkilotlar bundan mustasno[11]" deb belgilangan. Ushbu jinoyatlarni sodir etganlik uchun Rossiya qonunchiligiga ko'ra ikki yildan to'rt yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ushbu turdagi jinoyatlar hozirgi tahlikali davrda butun yer yuzidagi qalqib suzib yurgan davlatlarning normal faoliyat ko'rsatishiga, har tomonlama rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bunday tashkilotlarga ruxsat etilgan davlatlar va xalqlar bora bora parchalanib yo'q bo'lib ketadi. Ushbu tashkilotlar bir davlatning boshqa davlat bilan qonli to'qnashuviga, insonlarning behudaga halok bolishiga, xalqlarning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shu sababli bunday tahlikali davrda barcha xalqlar, millatlar, davlatlar, shaxslar ijtimoiy kelib chiqishidan hamjihatlikda harakat qilib ushbu turdagi jinoyatlarga tashkilotlarga qarshi kurashish zarur.

Ushbu jinoyat turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu jinoyatni tergov qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 244²-moddasi 2-qismiga ijtimoiy tarmoqlar yoki Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holatda ushbu turdagi jinoyatni sodir etganlik uchun - "telekommunikatsiya tarmoqlari yoxud Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib" bandini kiritish. Chunki bugungi kunda ushbu jinoyatlarning aksariyat qismi ijtimoiy tarmoqlar va internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda sodir etilmoqda;
2. Ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarini qabul qilishva ushbu jinoyatlarni oldini olish tizimini takomillashtirish;
3. Ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashda shaxslar va jamoatchilikning rolini oshirish, shu bilan bir qatorda ularda ushbu turdagi jinoyatlarga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirish;
4. Ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha metodik qo'llanmalar, rejalar ishlab chiqish;
5. Tergovga qadar tekshiruv organlari xodimlari va tergovchilarni ushbu turdagi jinoyatlar bo'yicha dalillarni olish va mustahkamlash, tergov qilish bo'yicha malakasini oshirish;
6. Ijtimoiy tarmoqlarni va butun jahon internet tarmog'ini monitoring qilish bo'yicha kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish;
8. Talim tizimini takomillashtirish, maktabgacha alimdan boshlab dunyoviy, huquqiy, siyosiy va diniy bilimlar berish tizimini shakllantirish.

References:

1. Доклад, подготовленный для Конгресса мира в Стокгольме; Головушкин. Д.А Современный православный фундаментализм ор псевдофундаментализм? // Известия Иркутского государственного университета. Серия Политалогия. Религиоведение.-2018.
2. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
3. <https://lex.uz/acts/111453>
4. <https://lex.uz/docs/5491534>
5. Rustambaev. M.X O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar, Toshkent. 2021., 346-b.
6. Prezidentimiz Mirziyoyev. Sh.M raisligida o'tkazilgan "Arxitektura, qurulish va shaharsozlik sohasidagi ustuvor vazifalarga bag'shlangan vidoselektor yig'lishi"da aytgan fikridan 2022-yil 6-iyul
7. <https://lex.uz/docs/3841957>
8. "Terrorizm, separatizm va ekstrimizmga qarshi kurashish to'g'risidagi shanxay konvensiyasi" Shanxay 2001-yil 15-iyun
9. Головушкин. Д.А Современный православный фундаментализм ор псевдофундаментализм?//Известия Иркутского государственного университета. Серия Политалогия. Религиоведение.2018.Т25.-с. 92-102
10. Костюк.К.Н Православный фундаментализмЖ социальный портрет и истоки // Полис. Политические исследования. -2000. - №5. – С. 133-134
11. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/